Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 101-027.542 (043)
ORCID: 0009-0000-2638-0724

JAMIYATDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma'naviyat asoslari
kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: fedizara07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatda ma'naviyatga berilayotgan e'tibor haqida, uning ahamiyati haqida, shuningdek milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining kelib chiqishi, bu borada izlanish olib borgan tadqiqotchi olimlar, ularning fikrlari, milliy o‘zlikni anglash tushunchasining lug‘aviy ma'nosi, o‘zlik tushunchasi, o‘zlikni anglash tushunchasi, “milliy”, “millat” va “yurt” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqligi tadqiq qilingan. Maqolada milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi shaxs va jamiyatning o‘z tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analariga bo‘lgan hurmati va sadoqatini ifodalaydi.Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va san'atning bu jarayondagi ta'siri o‘rganiladi.

Globalizatsiya davrida milliy o‘zlikni anglashning dolzarbligi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga etkazish masalalari muhokama qilinadi. Milliy o‘zlikni anglash jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlash, milliy g‘urur va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada bu jarayonning ahamiyati va uni amalga oshirish usullari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, milliy o‘zlikni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Milliy o‘zlikni anglash jamiyat barqarorligi va milliy madaniyatning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, maqolada jamiyatdagi milliy o‘zlikni anglash asoslari haqidagi fikr va mulohazalar, bu tuyg‘uni jamiyatda shakllanishida muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma'naviyat, milliy o‘zlik, o‘zlik, g‘oya, tuyg‘u, vatan, vatanparvar, milliy, millat, mamlakat.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ.

Аннотация: В статье рассматривается внимание, уделяемое духовности в стране, ее значению, а также происхождению чувства национального самосознания. Освещены работы ученых, проводивших исследования по этому вопросу, их взгляды, а также словарное значение понятий «национальное самосознание» и «самосознание». Также исследована их неразрывная связь с такими понятиями, как «национальность», «нация» и «страна». В статье подчеркивается, что национальное самосознание выражает уважение и преданность человека и общества своей истории, культуре, обычаям и традициям. Рассмотрено также влияние средств массовой информации и искусства на этот процесс.

В статье рассматривается актуальность национального самосознания в эпоху глобализации, а также вопросы сохранения и передачи национальных ценностей молодому

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

поколению. Национальное самосознание играет важную роль в укреплении сплоченности общества, развитии национальной гордости и социальной ответственности. В статье представлена детальная информация о значении этого процесса, а также предложены рекомендации по формированию национальной идентичности. Национальное самосознание имеет большое значение для стабильности общества и развития национальной культуры. Также в статье обсуждаются основные принципы формирования национального самосознания в обществе и ключевые аспекты этого процесса.

Ключевые слова: духовность, национальная идентичность, идентичность, идея, чувство, Родина, Патриот, нация, национальность, страна.

IMPORTANT ASPECTS OF THE FORMATION OF A SENSE OF NATIONAL IDENTITY IN SOCIETY.

Annotation: This article explores the focus on spirituality in the country, its importance, as well as the origin of the national sense of self, the research scientists who have researched on it, their thoughts, the linguistic meaning of the concept of national self-awareness, the concept of self-awareness, the inextricable relationship with the concepts of "national", "nation" and "land". In the article, the sense of national identity expresses the respect and commitment of the individual and society to their history, culture, customs and traditions.The influence of media and art in this process is also studied.

In the era of globalization, issues of the relevance of the understanding of the national identity, the preservation and transmission of national values to the younger generation are discussed. National identity awareness is an important factor in strengthening solidarity in society, promoting national pride and social responsibility. The article provides detailed information about the importance of this process and the methods of its implementation, as well as recommendations for the formation of a national identity. National identity awareness is of great importance in the stability of society and the development of national culture. In addition, the article covers thoughts and reflections on the foundations of the perception of the national self in society, important aspects in the formation of this feeling in society.

Keywords: spirituality, national self, self, idea, dream, homeland, patriot, national, nation, country.

KIRISH. Jamiyatda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish bugungi kunda millatning barqarorligi, birligi va o‘zligini saqlab qolish yo‘lidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, hamda zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi sharoitida milliy o‘zlikni anglash masalasi yana-da dolzarb bo‘lib qolmoqda. Milliy o‘zlikni anglash, avvalo, insonning o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari, tili va madaniy merosini anglab yetishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayon inson ongida shakllanadigan chuqur ma’naviy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, milliy g‘urur va o‘ziga xoslikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Milliy o‘zlikni anglash orqali inson o‘z millati va madaniyati bilan faxrlanadi, ularning rivojlanishiga hissa qo‘shishga intiladi. Shuningdek, bu jarayon jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash va milliy birdamlikni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

O‘z navbatida, milliy madaniyat va urf-odatlar orqali milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'atning o‘rni katta.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim manba bo‘lib, ular yoshlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish uchun xalqaro miqyosda milliy o‘zlikni himoya qilish strategiyalari ishlab chiqilishi lozim.

Ma’naviyat va ma’rifat har bir davlat siyosatida muhim strategik omil sifatida qaraladi. Ma’naviy olam bu tengsiz qudrat, tinchlik va totuvlik, botiniy va zohiriy tuyg‘ularni o‘zida mujassam etgan beqiyos kuchdir. Yuksak ma’naviyatli jamiyatda xalq, millat va elat, insonlar yuksak fazilatli, kamoloti baland axloqi yetuk bo‘lib tarbiya topadi. Shuning uchun har bir mamlakat o‘z siyosatida ma’naviy yuksalishga alohida e’tibor qaratadi. Bejizga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma’naviyat haqida “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” [1]. - deb to‘xtalmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tarix bizga shuni ko‘rsatadiki, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish qadimdan olimlar e’tiborini jalb etgan muhim masalalardan biri bo‘lgan. Inson hayotining ma’nosi va maqsadini anglash jarayoni, aslida, uning milliy o‘zligini tushunishidan boshlanadi. Milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini ijtimoiy falsafiy jihatdan MDH olimlaridan A.Bagdasarova N.Belyaev, o‘zbek olimlaridan B.Saparov, S.Otamurodov, Q.Nazarov, I Ergashev, V.Qo‘chqorov, I.Suvanov, N.Nazarovlar o‘z ilmiy ishlarida ushbu maummoni tadqiq etishgan.Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Milliy o‘zlikni anglash insonning butun borliqda o‘zining individualligini tan olish, shuningdek, uning ahamiyatini qadrlash va anglash qobiliyatiga ega ekanligini anglatadi. «O‘zlikni anglash» – insonning borliqda o‘z o‘rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘z «men»i va hayotiy maqsadlarini boshqa «men»lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O‘zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o‘zlikni anglashdir[4, 406-б].

Tadqiqotchi B.Saparovning fikriga ko‘ra, «O‘zlikni anglash», «Milliy o‘zlikni anglash», «Umumbashariy o‘zlikni anglash» tushunchalari bir - biri bilan uzviy bog‘liq. Inson nafaqat o‘z yaqinlari, balki butun insoniyat bilan bog‘liq munosabatlar asosida o‘zligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g‘oya tamoyillari shakllangan va o‘z navbatida, milliy g‘oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi [7, 24-б].

Milliy o‘zlikni anglash masalasini anglamoq uchun avval o‘zlik so‘zining lug‘aviy ma’nolarini tahlil qilishimiz darkor. Lug‘atda “men” “insonning mohiyati, shaxsi, uni o‘ziga, shaxsiga aylantirgan narsa” deb ta’riflanadi. Unga sinonim bo‘lgan “o‘zlik” – “odamlarga ijtimoiy mavjudot sifatida xos bo‘lgan belgi, sifat va xususiyatlar hamda kimnidir muayyan shaxs bo‘lishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar yig‘indisidir.

O‘zlik - bu o‘zi va boshqalar nazarida "o‘ziniki" deb tushunilib, u ko‘zguda o‘zini qanday ko‘rishini, ijtimoiy doirada "o‘ziniki" nima ekanligini ifodalashda o‘zini anglashi, to‘ldirish va joylashishni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, bir tomondan, o‘ziga xoslik insonning o‘zligini anglashi bilan birga, boshqa tomondan, bu “o‘z” joylashish jarayonida ijtimoiy muhit mavjudligiga muhtojlik hamdir.

Milliy o‘zlikni anglash borasida o‘zbek olimlari ham keng izlanish olib bormoqdalar. Tadqiqotchi I.Suvanovning fikricha, milliy o‘zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til,

madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an'analarga mansubligini va o'z o'rnini idrok etishdir [8, 23-б].

Milliy o'zlikni anglash tushunchasining ma'no-mazmuni, haqida olimlarning qarashlari turlicha. Jumladan, professor S.Otamuratovning fikricha, «Har bir millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odat, an'analar, qadriyatlarga, davlatga mansubligini manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yitishi- milliy o'zlikni anglash» [6, 26-б], deb ataladi va «Milliy o'zlikni anglash har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida rivojlanib va takomillashib boradi». Siyosiy fanlar doktori N.Nazarovning yozishicha, «Milliy o'zlikni anglash har bir etnos milliy mentalitetining shakllanib rivojlanishida hamda etnosning rivojlanish jarayonida tarixiy – madaniy omillar ta'sirini idrok etish, o'zlikni anglab, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analariga hurmat bilan qarash»[5,64-б]. Professor V.Qo'chqorovning ta'kidiga ko'ra, «O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri idrok etish, ijtimoiy tajribalardan foydalanish zaruriyatini, qonuniyatlarini bilish hamdir»[10, 19-б]. O'zlikni anglash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar xilma – xilligini e'tiborga olib professor I.Ergashev «O'zlikni anglash ma'naviyat, axloq – odob, ma'rifat, tarix, milliy madaniy merosdan xalos bo'lgan xolat emas. U bugungi jamiyat qurilishi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi»[9, 19-б], degan mulohazani bildiradi.

O'zikni anglash jamiyat va madaniyat doirasida ham jamoaviy darajada rivojlanadi. Tarixiy jihatdan odamlar o'zligini anglash va dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirgan turli xil e'tiqod tizimlari, dinlar, falsafa va mafkuralarni yaratdilar. Madaniy va ijtimoiy miyorlar, qadriyatlar va stereotiplar ham ma'lum bir jamiyatda o'zligini anglashning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, o'zlikni anglash turli darajalarda - individualdan kollektivga, o'z-o'zini anglashning oddiy shakllaridan o'zi va dunyo haqidagi murakkab va mavhum g'oyalarga qadar rivojlanadi.

Milliy o'zlikning shakllanishi avvalo, millat hayotiy faoliyatining maqsad va marralarini belgilaydi, uning o'z g'oyalari, mafkurasi, nazariy tilda aytsak, o'z konsepsiyasining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir.

«Milliy» tushunchasi «millat» va «mamlakat» tushunchalari bilan uzviy aloqador. Jumladan, O'zbekistonning mutaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'tmishi, milliy-madaniy merosi nuqtai nazaridan qarash bilan birga unda mamlakat milliy manfaatlari ifodalanadi. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda professor I.Ergashevning " "Milliy" so'zini yangicha ma'noda, kengroq tushunish zarur. Uni faqat "an'anaviy" tarzda "millat" tushunchasi talqinida emas, mamlakatni yaxlit holda anglatuvchi atama sifatida ham qabul qilish muhim" [9, 76-б] , - degan fikriga qo'shilamiz.

Milliy o'zlikni anglash tushunchasi millat va elat tushunchalari bilan hamohang bo'lib, uning shakllanishi avvalo millat va elatlarning hayotdagi umid va maqsadlaridi belgilaydi, ularning o'z fikr, g'oya, mafkuralarining shakllanishi bilan o'zaro bog'liqdir. M.I.Belyaevning fikriga ko'ra, butun insoniyat yaxlit organizmida har bir millatning o'z o'rnini belgilaydigan g'oyasi bo'lishi kerak va millatning g'oyasi davlat quruvchanlikdadir[3,c-58]. Bizning fikrimizcha, hozirgi milliy maqsadlarimiz va milliy mafkuramizda ilgari surilgan fikr va g'oyalarimiz ya'ni, «Yangi O'zbekiston jamiyatini barpo etish» g'oyasi bundan ancha keng va chuqur mazmunga ega.

Professor S.Otamuratovning fikricha, «milliy o'zlikni anglash» tushunchasi tarkibiga: 1) milliy birlikni va boshqa etnoslar

mavjudligini anglash; 2) milliy qadriyatlarga: tilga, tug‘ilib o‘sgan joyga, madaniyatga (keng ma’noda) ixlosmandlik; 3) vatanparvarlik; 4) milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish; 5) milliy manfaatlarni anglash kiradi [6, 65-66-б].

Milliy o‘zlikni anglash millatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘zini, mohiyatini, hayot va jamiyatdagi rolini to‘liq anglashni, shuningdek, ma’lum bir kontekstda o‘zini ajrata olish qobiliyatini ifodalaydi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichida odamlar o‘zlarini atrofdagi tabiatdan ajrata boshladilar. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi va qabilaviy tashkilot davrida odamlar o‘zlarini hayvonlardan va boshqa tabiat obyektlaridan ajrata boshladilar. O‘z-o‘zini anglash shaxsiy xislat hisoblanadi. Har qanday shaxsiy xislat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u faqat boshqa obyekt yoki shaxs bilan taqqoslash kontekstida namoyon bo‘ladi. Shakllanishning dastlabki bosqichlarida bu noyob xususiyat yashirin mavjud bo‘lib, u faqat muayyan vaziyatlarda seziladi.

Milliy o‘zlikni anglash bilan milliy o‘z-o‘zini anglash masalasi sinonim sifatida ishlatilsada, lug‘atlarda milliy o‘z-o‘zini anglashni quyidagicha talqin etilgan: “Milliy o‘z-o‘zini anglash - har bir millat (elatning) o‘zini real mavjud sub’ekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarining ifodalovchisi ekanligini, yagona til, urf-odat, an’ana, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaat hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yitishidir [11, 271-б]”.

Siyosiy fanlar doktori V.Qo‘chqorov “o‘zlikni anglash” tushunchasi bilan “milliy o‘zlikni anglash” tushunchalarining ma’no-mazmunini taxlil etadi va quyidagicha izohlaydi: “O‘zlikni anglash kishining borliqda o‘z o‘rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O‘zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o‘z-o‘zini anglashdir. Milliy o‘zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizda, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an’analarga mansubligini va o‘z o‘rnini idrok etishdir” [10, 12-б].

Milliy o‘zlikni anglash millat shakllanishining muayyan tepa bosqichi mezoni hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash masalasi bu millatni qolaversa jamiyatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Zero har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak milliy o‘ziga xoslik yuqori bo‘lgan davrda mamlakat aholisi turmush darajasi yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

A.B.Bagdasarova milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasini butun olam nigohi nazarida tahlil qiladi: milliy o‘z-o‘zini anglash o‘zida ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ta’limiy, estetik, falsafiy, diniy qarashlarni namoyon qiladi va diniy rivojlanishni turli millatlarda aks ettiradi. Shu yo‘sinda milliy tafakkur millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotiy jarayonlari bilan birga milliy ta’limini aks ettiradi[2, c-79].

Yuqoridagi ta’rifning ahamiyatini tan olgan holda, biz milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasini jamiyatning ko‘p jabhalarida, jumladan, ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy, falsafiy qarashlarda namoyon bo‘lishini ba’zi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

1.Ijtimoiy qarashlar-milliy o‘z-o‘zini anglash ma’lum bir millatda qabul qilingan qadriyatlar va miyorlar to‘g‘risida g‘oyalarni shakllantirishi mumkin. Bu odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga, shu jumladan oila ichidagi munosabatlarga, ijtimoiy aloqalarga va shaxsning jamoadagi roliga ta’sir qilishi mumkin.

2. Siyosiy qarashlar - milliy o‘z-o‘zini anglash ma’lum bir xalqda ifodalangan siyosiy e’tiqod va mafkuralarda aks etishi mumkin. Bunga o‘z taqdirini o‘zi belgilashga intilish, madaniy merosni asrab-avaylash,

xalqning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, siyosiy ramzlar va institutlar orqali milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish kiradi.

3. Ta’lim tizimiga oid qarashlar - milliy o‘z-o‘zini anglash milliy an’analar, tarix, til va madaniyatni aks ettirish va saqlash uchun ta’lim tizimlari va ta’lim mazmuniga ta’sir qilishi mumkin. Bu yosh avlod o‘rtasida milliy ongni rivojlantirish va fuqarolik o‘ziga xosligini shakllantirishga yordam beradi.

4.Falsafiy qarashlar-xalqning diniy va falsafiy e’tiqodlari ularning milliy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Falsafa ma’lum bir xalqning tarixi, madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini tushuntirish va talqin qilish uchun ishlatilishi mumkin.

XULOSA. Milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish jarayoni millatning tarixi, madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Bu tuyg‘u jamiyat a’zolarida o‘z milliy identifikatsiyasini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi, ularning millatiga nisbatan faxr va mas'uliyat hislarini kuchaytiradi. Shu sababli, milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish jarayonida ta'lim va tarbiya muassasalarining, oilaning, madaniyat va san'at sohasining roli beqiyosdir.

Ta’lim tizimida milliy qadriyatlar va urf-odatlarni yosh avlod ongiga singdirish orqali ularni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin. Milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, milliy maqsadlar sari birlashish va o‘zligini yo‘qotmaslikka erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini falsafiy-nazariy jihatdan tahlil qilishimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan,milliy o‘zlik, avvalo, insonning o‘z milliy madaniyati, tili, urf-odatlari va an’analarini anglash va ularga hurmat bilan yondashishdan iboratdir. Bu anglash tuyg‘usi insonning o‘zligini, uning jamiyatdagi o‘rnini va mas'uliyatini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, milliy o‘zlikni anglash jamiyatning birligi va barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Milliy o‘zligini to‘g‘ri anglagan shaxslar jamiyatning rivojlanishi va mustahkamlanishiga ijobiy hissa qo‘shadilar.

Uchinchidan, zamonaviy globallashuv jarayonlari milliy o‘zlikni anglash masalasiga yangi chaqiriqlar qo‘ymoqda. Turli madaniyatlar ta’siri ostida milliy o‘zlikni saqlab qolish va uni rivojlantirish uchun chuqur ma’naviy va falsafiy yondashuv zarurdir.

To‘rtinchidan, milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishda ta'lim va tarbiya tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash milliy o‘zlikni anglashning asosiy vositalaridan biridir.

Beshinchidan, milliy o‘zlikni anglash insonning ma’naviy tarbiyasiga ham bog‘liqdir. O‘z milliy qadriyatlarini chuqur anglagan shaxslar jamiyatda axloqiy va ma'naviy me'yorlarga rioya qilishga intiladilar.

Umuman olganda, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining falsafiy va nazariy asoslari madaniy o‘ziga xoslik, ijtimoiy qurilish, hissiy aloqa va siyosiy falsafa sohasida yotadi. Ular milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi shaxs va jamiyatda qanday shakllanishi, rivojlanishi va ta’sir qilishini tushuntirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Prezidentimiz SH.Mirziyoyev rahbarligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan nutq

2.Багдасарова А.Б. Механизм перерастания национального сознания в националистическое. // Журнал «Этнические проблемы современности». Вып. 4. – Ставрополь: издательство СГУ, 1996. –С. 79.

3.Беляев Н.Я. Идеология русского национального государства. Москва: 2006,С-58

4. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Қайта ишланган янги нашри. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 2016. – 406 б.

5. Назаров Н. Мустақиллик шароитида этноижтимоий жараёнлар. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси «Ижтимоий фикр» жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази, 2005. - Б.64.

6. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Академия 2009. – 368-б.

7.Сапаров.Б "Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тузилмавий-функционал таҳлили". Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент: 2019. – 159- б

8.Суванов И. Шахс маънавиятини юксалтиришда миллий ғоя ва ўзликни англаш диалектикаси. Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент: 2018. – 136 б.

9. Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Акадимия, 2011. – 101-б.

10.Қўчқоров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий – сиёсий жараёнлар. – Тошкент: Академия, 2007.-Б.61.

11. Қ.Назаров ва бошқ "Фалсафа қомусий луғат" Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.271

12. Рахманкулов, Ф. Р. (2022). МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ МАЪНАВИЙ ТАРРАҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 752-755.